

CHORVACHILIK VA QISHLOQ AHOLISINING IJTIMOIY HAYOTI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Jumayeva Shoxida Choriyevna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

ЖИВОТНОВОДСТВО И СОЦИАЛЬНАЯ ЖИЗНЬ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Жумаева Шохид Чориевна

Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

LIVESTOCK AND SOCIAL LIFE OF THE RURAL POPULATION: PROBLEMS AND PROSPECTS

Jumaeva Shokhida Chorievna

Lecturer at Termez University of Economics and Service

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sovet hukumati davrida chorvador aholining maishiy xizmatlar bilan ta'minlanishdagi muammolari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonda chorvadorlar hayotiga oid ijtimoiy muammolar va natijalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Chorvachilik, sovet hukumati, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, turmush sharoiti.

Аннотация: В статье рассматриваются проблемы обеспечения поголовья скота хозяйственными услугами в советское время. В нем также освещаются социальные проблемы и последствия, связанные с жизнью животноводов в Узбекистане.

Ключевые слова: Животноводство, Советская власть, экономика, сельское хозяйство, условия жизни.

Abstract: This article examines the problems of the livestock population in providing them with household services during the Soviet period. It also highlights the social problems and results of the life of livestock farmers in Uzbekistan.

Key words: Livestock, Soviet government, economy, agriculture, living conditions.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Chorvadorlar uchun zarur bo'lgan maishiy xizmatlar, jumladan poyafzal, kiyim tikish, ta'mirlash va texnik xizmatlar yetishmasligi, aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. 1970-yillarda davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar kam bo'lib, aholiga xizmat ko'rsatish sohasidagi rivojlanish sekin bo'lgan. 1980-yillarda bu muammolarni hal qilishga kirishilgan bo'lsa-da, Sovet ittifoqi ichki iqtisodiy qiyinchiliklar va ma'muriy-buyruqbozlik sababli natijalar yetarli bo'lmagan. O'zbekistonda chorvador aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi samarasizlik va muammolar davlat siyosati va iqtisodiy rejalashtirishdagi kamchiliklar bilan izohlangan.

O'zbekistonda qishloqlar, dashtliklar, qir-adirlar va tog'li hududlarda yashayotgan chorvador aholisiga maishiy xizmat ko'rsatish har doim muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Bunday hududlarda turmush sharoiti maxsus yondoshuvni talab qiladi, chunki odamlar asosan chorvachilik bilan shug'ullanadilar va ularning zaruriyatlari, ehtiyojlari shaharlardagi aholdan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Ushbu davrda chorvador aholi uchun yangi maishiy xizmat turlarini joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda yetarli mablag' ajratilmagani, shuningdek, qishloqlarda maishiy xizmat binolarini barpo qilishga va xizmat turlarini ko'paytirishga yetarli e'tibor berilmagan. Natijada qishloq aholisining turmush darajasi va har



E-mail:

jumayevas@tersu.uz

Orcid: 0009-0003-

1683-3066

kunlik hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1970-yillar boshida Surxondaryo viloyatidagi chorvador aholining turmush tarzi achinarli holda bo'lgan. Chorvador aholisiga kerakli ko'nikmalar va xizmatlarni ko'rsatishda katta muammolar mavjud edi. Poyafzal, kiyim tikish, ta'mirlash, soatsozlik, fizioterapiya, rasmxona va radio-televiziya" sohasida mutaxassislar va xizmatlar juda kam edi. Bu sohalaridagi ustaxonalar aholi ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Chorvador aholisining kundalik turmushi uchun zarur bo'lgan ta'mirlash, qayta jihozlash, oyoq va kiyimlar tikish, radio-texnik xizmatlar, metall buyumlarga ishlov berish, uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash va boshqa sohalarida o'rta maxsus o'quv yurtlari mavjud emas edi. Shuningdek, mavjud mutaxassislarning huquqiy himoyasi, malakasini oshirish, ish joyi bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va zarur xomashyo hamda asbob-uskunalar bilan ta'minlashga e'tibor berilayotgani yo'q edi. Bu esa chorvador aholini turmush tarziga salbiy ta'sir etib, ta'mirlashga muhtoj bo'lgan buyumlarni ta'mirlash uchun sharoit yo'qligi tufayli tashlab yuborilar hamda oila daromadiga yomon ta'sir qilar edi. Sovet davrida O'zbekistonda chorvador aholiga xizmat ko'rsatish sohaga ajratilgan mablag'lar juda kam bo'lib, bu aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga yetarli bo'lmagan. 1970-1980-yillarda sarflangan mablag'lar jon boshiga kam hissa bo'lgani uchun, chorvadorlar turmush tarzida salbiy ta'sir ko'rsatgan va ularni iqtisodiy og'irliklarga solgan [2].

MUHOKAMA(OБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Sovet hukumati chorvador aholi uchun xizmat qiladigan maishiy-xizmat turlarni rivojlantirish, yangi imkoniyatlarni yaratish bo'yicha arziyas mablag'lar ajratib, ushbu mablag'larni juda kam qismini O'zbekiston Respublikasi uchun ajratar edi. Ushbu ajratilgan mablag'lar chorvador aholi jon boshiga hisoblaganda nihoyatda kam foizni tashkil qilar edi.

Janubiy hududlarda chorvador aholi uchun hayotiy zarur bo'lgan maishiy-xizmat xizmatlari, ayniqsa, rasmxona, soch-soqol olish, ayollar sochini turmaklash, hammom, kiyimlarni kimyoviy usulda yuvish, mebellar tayyorlash, qayta ta'mirlash, radio-televiziya ustaxonalari, uy-joylarni va shaxsiy transportlarni ta'mirlash kabi sohalar 1970-yillarda

yangidan paydo bo'la boshladi. Bu soha hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, unga ajratilgan mablag'lar nihoyatda kam edi. O'zbekistonda 1969-yilda 5423 ta maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari mavjud bo'lib, ularga 21,0 million rubl mablag' ajratilgan edi. 1970-yilga kelib, maishiy xizmat tarmoqlari 13425 taga yetdi va bu sohaga ajratilgan mablag'lar 100 million rublni tashkil etdi. Maxsus maqomga ega bo'lgan Qashqadaryo viloyatida 1969-yilda 262 ta maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'lib, ularga barqaror 0,5 ming rubl mablag' sarflangan edi. 1970-yilda esa bu soha 841 ta tarmoqkacha kengayib, 4,4 million rubl sarflandi. Surxondaryo viloyatda ham 1969-yilda 262 ta maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari mavjud bo'lib, u yoqda ham 0,7 ming rubl mablag' sarflangan edi. 1970-yilga kelib, bu ko'rsatkich 841 tagacha o'sdi va 4,5 million rubl mablag' sarflandi. Shu tariqa, yangi hayotiy zarur bo'lgan maishiy xizmatlar tarmoqlari juda tez o'sib, ularga ajratilgan mablag'lar ortganiga qaramasdan, sohaga bo'lgan e'tibor va mablag'lar hali ham yetarli bo'lmagan. Qayd etilgan ushbu raqamlar chorvador aholi jon boshiga sarflanganda o'rtacha juda kam miqdorini tashkil etar edi [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Chorvador aholiga xizmat ko'rsatish sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun Markaz yetarli moddiy yordam ajratmadi. Ajratilgan mablag'lar ham asosan Markaziy yirik shaharlarlarga sarflanib, Janubiy hududlarda byudjet hisobidagi maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari juda sekinlik bilan paydo bo'lib, xizmat turlari shakllana bordi. 1975-yilda Surxondaryo viloyatda 1091 ta maishiy xizmat nuqtasi bo'lib, 9,0 million rubl mablag' sarflandi. Tahlil qilinayotgan yillarda janubiy hududlarda chorvador aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni yangi binolar bilan ta'minlash, yangi xizmat turlari radio-televiziya, metallga ishlov berish, zargarlik, zamonaviy soch turmaklash, soatsozlik, kiyimlarni kimyoviy tozalash, kir yuvish texnikalarni qayta ta'mirlash bo'yicha kurslar ham PTU qoshida maxsus o'qitish bo'limlari tashkil etildi [4]. Shuningdek oyoq poyafzali, kiyim tikish syehlari ochilib, aholi talab ehtiyojlardan kelib chiqib, mahsulotlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohani rivojlantirishga e'tibor 1980-yillarda ma'lum ma'noda rivojlanish bosqichiga ko'tarilib, ushbu masala davlat nazorati doirasida ko'rib chiqildi. Chunki rivojlangan sotsializm g'oyasi ta'sirda siyosat yuritayotgan

Sovet hukumati o'zini strategik davlat dasturida "Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun" degan balandparvoz shiorga tayanib, sotsializmni afzalliklarni namoyon etishga kirishdi. O'zbekistonda ham maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi ijobiy o'zgarishlar chorvador aholi manfaatlarni himoya qilish, talab-ehtiyojlarni hisobga olgan holda xizmat turlarini yaratish masalasida jiddiy ishlarni amalga oshirishga kirishildi. 1980-yilda O'zbekiston Respublikasida jami 18031 ta maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari bo'lib, 314,0 million rubl mablag' sarflangan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida 1285 ta maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari bo'lib, 15,6 million rubl, Surxondaryo viloyatida 1206 ta maishiy xizmat ko'rsatish nuqtalari bo'lib, 16,7 million rubl mablag'lar sarflandi [5].

Sovet ittifoq davridagi turg'unlik sharoitda aholini turmush tarzini yaxshilash uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilmadi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasida chorvador aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasida amaliy natijalarga erishilmadi. 1985-yilda O'zbekistonda chorvador aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasida amaliy natijalarga erishishda jiddiy muammolar mavjud edi. Mamlakatdagi 20379 ta maishiy xizmat tarmoqlari 439,9 million rubl mablag' sarflanishini talab etdi. Bu mablag'lar asosan mavjud tarmoqlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, chorvador aholini ish-haqi bilan ta'minlash uchun yetarli bo'ldi. Surxondaryo viloyatida 1114 ta maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'lib, ularga 19,2 million rubl sarflandi. Biroq, ushbu mablag'lar va tadbirlar sohaga uzoq muddatli rivojlanish va zamonaviy xizmatlar joriy qilish uchun yetarli emas edi. Sovet tuzumida "Qayta kurash" siyosati asosida jamiyatni turg'unlikdan chiqarishga qaratilgan bo'lsa-da, bu siyosat amaliy natijalarga olib kelmadi. Chorvador aholisi uchun maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, yangi zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlash va yangi xizmat turlarini yaratishda aniq va samarali tadbirlar ishlab chiqilmadi [3]. Bundan tashqari, ma'muriy-buyruqbozlik va qoloqlik holati saqlanib qoldi, bu esa sohaning rivojlanishini to'sib, aholining haqiqiy ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat bermadi. Sovet hukumati davrida chorvador aholiga maishiy xizmatlarning rivojlantirilishi va ularga zaruriy yordamni ko'rsatish masalasi yetarlicha e'tiborga olinmagan. Bunga asosan, moliyaviy qo'llab-

quvvatlashning kamligi, yangi xizmat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mablag'larning cheklanganligi sabab bo'lgan [3].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Sovet hukumati chorvadorlarga maishiy xizmat ko'rsatishda amaliy natijalarga erishish uchun kerakli resurslar va strategik rejalarni yaratmagan edi. Bu holat chorvador aholisining kundalik turmushiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning turmush darajasining pastligiga olib keldi. Maishiy-xizmat sohasini rivojlantirish milliy daromadni oshirish va mahalliy aholining ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan aniq va samarali harakatlarni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006-yillarida fermer xo'jaliklarni rivojlantirish konsepsiyasi» to'g'risidagi PF-3342-sonli Farmoni. 2003-yil 27-oktyabr//www.Lex.uz.
2. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 1091- fond, 1-ro'yxat, ish-2292, 120-varaq.
3. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 1091- fond, 1-ro'yxat, ish-2298, 24-varaq.
4. Qarshiyev Sh. Fermer xo'jaliklarida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqt.fan.nomz. ...diss.-Toshkent, 1998. – B. 142.
5. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 1091-fond, ish-2298, 134-varaq.
6. Дусназаров, М. И., & Жумаева, Ш. Ч. (2020). Теоретические основы понятия семейного воспитания с позиций становления и развития культурной традиции. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1), 151-154.
7. Shodavlatovna, D. S., & Chorievna, J. S. (2021). The issue of a just king in kaikous's nightmare. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(3), 1416-1420.
8. Жумаева, ш. Ч. (2020). Развитие и сохранение аутентичности как условие естественного образования человека. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (4), 46-49.
9. Chorievna, j. S. (2022). Livestock reforms in surkhandarya. *Texas journal of agriculture and biological Sciences*, 4, 68-70.